

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Barcha ijtimoiy-siyosiy faoliyat singari, harbiy-vatanparvarlik ishida ham ma'lum bir sistema, shakliy uslub mavjuddir.*

U aniq bir vazifalarni, shakl va uslublar mazmunini, vositalarni, shuningdek, o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi davlat va jamoat korxonasi, tashkilot va muassasalarni o'z ichiga oladi.

Bu sistema, shakl, birinchidan, kompleks xususiyatga ega, ya'ni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish barcha o'quv-tarbiya muassasalarining vazifasidir.

Kalit so'zlar: *Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, milliy va baynalminal tarbiya, milliy g'oya va milliy istiqloq, milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy iftixor, ma'naviy-axloqiy va ruhiy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, diniy ekstremistik guruhlar.*

U uzluksizdir, chunki inson hayotining barcha davrlarida o'z ta'sir kuchida bo'ladi.

Uchinchidan, u to'liq bir shakldir, chunki u tarbiyaning barcha turlariga hamda armiya va xalqning birligiga tayanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan uch yo'nalish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sistemasining o'zagini tashkil etadi.

Buni quyidagi sharhlar bilan yoritib berish mumkin:

1. Qachonki, qaysi bir davlat yoki armiya shaxsiy tarkibi ma'naviy-axloqiy- va ruhiy jihatdan turg'un bo'lsa, ular o'z Vatnlariga cheksiz muhabbat va qo'shinlariga sadoqatda bo'lsa, ular o'z ishlarini haq ekanliklariga chuqur ishonishsa, bu haq ish uchun, jonlarini ham fido etishga tayyor bo'lsalar, bunday xalq yoki qo'shin hech qachon yengilmaydi. Chunki, ular ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, psixologik jihatdan esa turg'un insonlardir. Bunday insonlar mashaqqatlar, qiyinchiliklar oldida esankiramaydi, ikkilanmaydi, aksincha, ular bor shijoatlari ila va barcha vositalar bilan faqat g'alaba uchun kurashadilar.

Tarixdan bizga ma'lumki, ko'p urushlar natijasi oxir-oqibatda jang qilayotgan tomon qo'shinlarining ruhiy holatida bog'liq bo'lgan.

Demak, shunday ekan, bizning vazifamiz O'z Vatniga cheksiz sadoqatda bo'lgan, ruhiy jihatdan yetuk, turg'un yosh avlodni tarbiyalash, ulardan Vatn ravnaqi uchun, mustaqilligi uchun, zarur bo'lsa jonini fido etishga tayyor bo'lishdek xislatlarni shakllantirishdir.

2. Armiya shaxsiy tarkibi nafaqat ma'naviy-axloqiy va ruhiy jihatdan, balki harbiy-texnik tayyorgarligi jihatidan ham yuqori saviyada tayyorlangan bo'lmog'i kerak. Bu shaxsiy tarkib harbiy bilimlar, malakalarni egallamog'i, ular intizomiy va tartibli bo'lishlari, harbiy



qasamyod va nizom talablarini so‘zsiz bajarishlari, qo‘l ostidagi jangovar texnika va qurollardan mohirona foydalana olishlari kerak deganidir.

Albatta, yuqorida aytib o‘tilgan barcha jangovar xislatlar, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan harbiy- texnik tayyorgarlikda shakllantiradi.

Bu ishlarni amalga oshirishda harbiy-texnik jihatdan yuqori darajada tayyorlangan chaqiriluvchi yoshlarni tarbiyalashda Chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi mashg‘ulotlari, «Vatanparvar» tashkiloti qoshidagi to‘garaklar o‘zlari ulkan hissalarini qo‘shishlari kerak.

3. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini asosiy yo‘nalishlaridan yana biri Yoshlarning jismoniy tarbiyasi hisoblanadi. Bu yo‘nalish Yoshlarda jismoniy chiniqishni, ya‘ni ularni harbiy xizmat davrida ham, tinchlik vaqtida ham katta jismoniy yuklarni (nagruzkalarni) sabot bilan yengish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Jismoniy jihatdan chiniqqanlik -bu nafaqat sog‘lom tanaga ega bo‘lish, balki, bu Vatan himoyasiga va mehnatga tayyorgarlik hamdir. Hozirgi statistik ma‘lumotlarga qaraganda, yoshlarning 50 foizining salomatligi va jismoniy tayyorgarligi qo‘yilayotgan talablarga javob bermaydi. Bu kamchiliklar umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, yoshlar tashkilotlarida, jismoniy tarbiyani talab darajasida olib borilmaganligi, bu muhim ishga, aytish mumkinki, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishga ko‘p hollarda yuzaki yondoshilayotganlikdan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda, O‘zbekistonda bir necha qonun va qarorlar ana shu muammolarni bartaraf etish, Yoshlarning jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadida prezident va xukumat tomonidan qabul qilingan va bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillik, taraqqiyot yo‘lidan buyuk kelajak sari shaxdam odimlar tashlab bormoqda. Mehnatsevar, tinchlikparvar, taraqqiyoti yuksak darajada bo‘lgan, madaniyati, fani rivojlangani, huquqiy jamiyat poydevorini yaratish jarayonida yosh avlodning ham, albatta, o‘z o‘rni bo‘lishi kerak. Yosh avlodni buyuk kelajak quruvchilar sifatida tarbiyalash, ularni xalqimizning bugungi kundagi ulkan yaratuvchanlik ishlarining munosib davomchilari sifatida voyaga yetkazish uchun Prezidentimiz, hukumatimiz barcha ishlarni amalga oshirmoqdalar. Xalqimizning mana shu ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun hukumatimiz tomonidan bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilindi. Bular jumlasiga, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonun, «Sog‘lom avlod uchun» va boshqalar kiradi. Bu qonunlar bizlarga ta‘lim va tarbiyaning barcha turlari bilan bir qatorda Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini ham mazmunan yanada yuqori darajalarida tashkil etish va amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, O‘zbekiston xalqi buyuk davlat, jamiyat qurilishi yo‘lida mardonavor mehnat qilmoqda.

Bizning kundalik vazifamiz, yoshlarni ana shu qurilishlar jarayoniga jalb qilish, ular ongiga O‘zbekistonning buyuk kelajagi aynan, yoshlar qo‘lida ekanligini singdirish, kundalik mashg‘ulotlar, turli tadbirlar davomida ularda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otish va bu tuyg‘ularni asrab-avaylab tarbiyalashdir. Barchamizga yaxshi



ma'lumki, hozirgi kunlarda bizning mintaqamizda, xususan, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol keskin bo'lib qolmoqda.

Turli diniy ekstremistik, aqidaparast guruhlarining hokimiyat uchun kurashishi, ularning bizning jamiyat uchun umuman yot bo'lgan mafkuralarini targ'ib qilishi Vatanimiz mustaqilligiga, uning tinchliksevar ko'p millatli xalqiga xavf tug'dirishi mumkin.

Bu guruhlarining yoshlar o'rtasida olib borayotgan buzg'unchilik targ'ibotlari hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Yoshlar uchun kurashish kerak». Bu kurash bizning har bir mashg'ulotlarimizda, o'tkazayotgan tadbirlarimizda o'z aksini topishi, qisqacha aytganda esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlarining bosh nizomi bo'lib qolishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.13. - T.: Fan, 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.14. - T.: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.15. - T.: Fan, 1999.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.16. - T.: Fan, 2000.
5. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. - B. 7-15
6. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. - T.: Meros, 2003. - B. 129-185
7. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. - T.: Adolat, 2004.
8. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. - T.: Fan, 2001.
9. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.
10. G'aniyeva S. Navoiy nasri malohati. -T.: 1993.
11. Qayumov A. Asarlar. J.3. - T.: 2009.
12. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1998, 28-бет.

